

“MAKTABGACHA TA'LIM - MUVAFFAQIYAT POYDEVORI”**Mashrabboyeva Durdona***Namangan xizmat ko'rsatish va servis texnikumi**“Tabiiy, gumanitar va maxsus fanlar” kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim bolaning rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi, chunki bu davrda bola kelajak hayoti uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning 70-foizini egallaydi. U bolaning intellektual, hissiy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan tayyorligini ta'minlab, maktab ta'limi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'limning ahamiyati, bolalarning har tomonlama rivojlanishidagi o'rni, innovatsion pedagogik usullar va ota-onalar ishtirokining samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sifatli ta'lim berishdagi roli va kelajakdagi muvaffaqiyatga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Abstract. Preschool education is one of the main factors in the development of a child, because during this period the child acquires 70% of the knowledge and skills necessary for future life. It ensures the child's intellectual, emotional, physical and social readiness, creating a solid foundation for school education.

This article analyzes the importance of preschool education, its role in the comprehensive development of children, the effectiveness of innovative pedagogical methods and parental involvement. It also examines the role of preschool educational organizations in providing quality education and their impact on future success.

Аннотация. Дошкольное образование является одним из основных факторов развития ребенка, поскольку в этот период ребенок приобретает 70% знаний и навыков, необходимых для его дальнейшей жизни. Оно обеспечивает интеллектуальную, эмоциональную, физическую и социальную готовность ребенка, создавая прочный фундамент для школьного образования.

В данной статье анализируется значение дошкольного образования, его роль во всестороннем развитии детей, эффективность инновационных педагогических методов и родительского участия. Также рассматривается роль дошкольных образовательных организаций в предоставлении качественного образования и их влияние на будущую успешность.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, pedagog, psixolog, intellektual qobiliyat, pedagogik yondashuv, ijtimoiylashuv, innovatsion texnologiya.

Keywords: preschool education, pedagogue, psychologist, intellectual abilities, pedagogical approach, socialization, innovative technology

Ключевые слова: дошкольное образование, педагог, психолог, интеллектуальные способности, педагогический подход, социализация, инновационные технологии.

Maktabgacha ta'lim bolalarning rivojlanishida asosiy omil sanaladi, va kelajak avlodning shakllanishida ilk poydevor sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning ijtimoiy madaniy rivojlanishida, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. [1] Tarbiyalanuvchilarga ma'naviy axloqiy tarbiya berish, shuningdek, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagoglardan katta mahorat talab etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar davomida bolalarga shaxsiy namuna ko'rsatish, turli xil tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan chiqishlarni namoyish etish, mashg'ulotlar davomida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan o'yinlar va davra suhbatlarini o'tkazish orqali bolada ma'naviy va axloqiy tushunchalarni shakllantirish va ularda milliy qadriyatlarimiz, tariximizni aks ettirib berish mumkin.

Shuningdek, bolalarni har tomonlama sog'lom, barkamol yetuk qilib tarbiyalashda pedagoglar eng avvalo maktabgacha ta'lim sohasiga tegishli barcha me'yoriy hujjatlarni o'rganishi va uni amalda joriy etishi samaradorlikni oshiradi.

Mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish tarbiyalanuvchilar faolligini oshiradi, mashg'ulotga bo'lgan qiziqishi ortadi. Pedagogik jarayonlarda bolalar uchun o'yin texnologiyalaridan foydalanish eng samarali usullardan biridir. Negaki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin bo'lgani uchun bola o'zining holatini, kechinmalarini, orzu istaklari, va ayni paytda o'zining holatini o'yinda yaqqol aks ettiradi. Bundan tashqari pedagoglar guruhda ayrim bolalarning tarbiyasidagi yomon holatlarni bartaraf etishda, ularning ruhiy holatini o'rganishda o'yin terapiyasidan ham foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bunda, bola o'yin orqali o'zidagi yomon holatlarni o'z o'ziga oyna kabi aks ettiradi va o'zi tushunib yetadi. Pedagog to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkazmaydi balki, uni yo'naltirish orqali o'zidagi ayrim hislatlarni o'rgatadi. Bu esa bolaning psixologik holatiga salbiy ta'sir o'tkazmaydi. Bunday o'yin terapiyalari guruh bolalari bilan birgalikda "Yo'lovchi" o'yini orqali yoki, ota-ona va farzandlar o'zaro rol ijro etishlari ham mumkin.

Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni intellektual qobiliyatlarini didaktik o'yinlar orqali shakllantirish bolada mantiqiy fikrlashini rivojlanishiga, aqliy qobiliyatini shakllanishida, o'zi mustaqil fikrlay olishi, muammolarini hal qilishida yordam beradi. Mashg'ulotlarni STEAM – texnologiyasi asosida tashkil etish yosh avlodni har taraflama tarbiyalashda ularga yangi zamonaviy bilimlarni o'rgatishda va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda turtki bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida barcha pedagoglar STEAM asosida pedagogik jarayonlarni olib borishi ular uchun mashg'ulotni yaxshi tashkil etish kreativlik, ikkinchi tilni o'rganish va qo'shimcha daromad manbai sanaladi. Eng asosiysi, bolalarni intellectual qobiliyatlarini shakllantiradi, ruhiy va jismoniy rivojlanishi, atrofdagilar bilan muloqoti, hamkorlik aloqalarini o'rnatishda muhim rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim – muvaffaqiyat poydevori bo'lib xizmat qilishda ota-ona va MTT hamkorligi ham muhimdir. Bolaning ta'lim tarbiyasi faqat bir taraflama emas balki, oilalarning hamkorlik aloqalari asosida olib borilishi jarayonni qulaylashtiradi, va pedagoglar bola bilan ishlashda qiyinchilikka yuz tutmaydilar.

Mashg'ulotlarga ota-onalarni ishtiroki bolani ruhiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, ularni qo'llab quvvatlaydi.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida turli amaliy seminarlarni tashkil etish tarbiyachilar salohiyatini yanada yuksaltirmoqda. O'quv amaliy seminarlar pedagoglarni yangi tajribalar orttirishi, metodlar almashishi, va o'quv dasturini yanada kuchli o'rganishga turtki bo'ladi.

Xulosa qilinganda, maktabgacha ta'lim sohasi har qanday rivojlangan jamiyatning kelajagi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sifatli maktabgacha ta'lim nafaqat maktabga tayyorgirligini, balki, butun hayoti davomidagi ta'lim yutuqlarni ham yaxshilaydi. Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim bilim beribgina qolmay bolalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Mamlaktimizda bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va yutuqlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi. Biroq, shahar va qishloqdagi tafovutlar, metodik materiallarning zamonaviy talablarga javob bermasligi kabi muammolar hali ham mavjud va ularni bartaraf etish uchun qo'shimcha sa'y-harakatlar talab etiladi. Sifatli maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish orqali biz kelajak avlodini dunyoning raqobatbardosh fuqarolari sifatida tarbiyalashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekistonda ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarda maktabgacha ta'limning ro'li" Axmedova Raxima, Ergashbayev Shahbozbek
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2022.
3. "Ta'lim sifati-kelajak poydevori"
4. "Sifatli ta'lim-taraqqiyot poydevori" Ravshanova Adolat
5. "Kelajakka sifatli qadam: O'zbekistonda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va muammolar" Mukarramoy Hasanboyeva